

O'ZBEK ADABIYOTIDA "OLOV" LEKSEMASINING BADIY TALQINI

Raxmatov Bektemir Furqatovich

Buxoro davlat pedagogika institute,

O'zbek tili va adabiyoti yo'naliishi talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14043563>

Annotatsiya. Ushbu maqolada "olv" leksemasining turli ma'nolarda qo'llanishi haqidagi fikr-mulohazalar, bir leksema turli xil ma'nolarni ifodalashi, shu leksemaning qay o'rnlarda qo'llanilishi, o'zbek adabiyotida qay uslubda qo'llanganligi o'rganilgan.

Kalit so'zlar: Olov, alanga, she'riyat, adabiyot, janr, talqin, ma'no, shakl, tasvir.

ARTISTIC INTERPRETATION OF THE LEXEMA "FIRE" IN UZBEK LITERATURE

Abstract. In this article, opinions about the use of the lexeme "fire" in different meanings, the fact that one lexeme can express different meanings, where this lexeme is used, and how it is used in Uzbek literature are studied.

Key words: Fire, flame, poetry, literature, genre, interpretation, meaning, form, image.

ХУДОЖЕСТВЕННАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ЛЕКСЕМЫ «ОГОНЬ» В УЗБЕКСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

Аннотация В данной статье изучены мнения об употреблении лексемы «огонь» в разных значениях, одной лексеме, выражающей разные значения, где используется эта лексема и как она используется в узбекской литературе.

Ключевые слова: Огонь, пламя, поэзия, литература, жанр, интерпретация, смысл, форма, образ.

O'zbek adabiyotshunosligi uchun doimiy takrorlanadigan, asrlar osha abadiy bo'lgan va har xil qiyofada, shaklda namoyon bo'ladigan, ammo Sharq va G'arb adabiyotida farqlanadigan obraz, ya'ni bir davrdan ikkinchisiga o'tadigan, shoirlar tez-tez murojaat qiladigan va ularga o'z talqinlarini beradigan badiiy tasvirlarga an'anaviy obraz, deb ataladi. Ular har doim uzoq vaqt davomida o'zgarmas bo'lib qoladigan ma'lum ma'noga ega. Biroq, davr va muallifning dunyoqarashi va niyatiga ko'ra, tasvirning yangicha talqinlari yuzaga chiqishi mumkin.

Jumladan, olov obrazi adabiyotda turli ma'nolar kasb etgani, ilmiy tadqiqimiz orqali sharhlab o'tamiz. Olov Axura-Mazda nurining quyoshda namoyonligi va uning yerdagi zarrasi deb hisoblangan. Oliy haqiqat Arta ham olovda o'z ifodasini topgan. Olov haqni nohaqdan, eng oliv gunoh hisoblanmish yolg'oni rostdan ajratib bergen. Yolg'on esa chin e'tiqodga xiyonat deb qoralangan. Zardushtiylik oqimida olov gunohlardan tozalovchi sehrli kuch deb qaraladi.

Zardushtiylik oqimida murdani tuproqqa ko'mish yoki kuydirishni taqilaydi. Bu oqim jonning o'lmasligini, uning abadiyligini tan oladi. "Olov" tushunchasi she'rlarda, ruboilylarda, g'azallarda majoziy ma'noda ko'proq qo'llaniladi.

Olov kulti haqidagi qarashlar juda qadimiy bo'lib, ular islomgacha shakllangan diniy-mifologik tushunchalarga borib taqaladi. Aniqrog'i, uning ildizi ruhlarga ishonchdan iborat animistik tasavvurlar bilan tutash. Olov kulti haqidagi qarashlar butun dunyo mifologiyasida keng tarqalgan hodisalardan biridir. Qadimgi miflarda olov suvdan hosil bo'lgani aytiladi.

Ayniqsa, hind Upanishad ta'limoti faylasuflari olov koinotda suv kabi aylanib yuradi, deb hisoblaydilar. Yana inson olovdan yaralgan, chunki uning vujudi issiq, o'lgach tanasidagi olovi o'chadi, deb qaralgan.

Buni biz Umar Xayyomning: «Ahil bo'lsa olov ichra ham inson... » nomli ruboiysida uchratishimiz mumkin:

Ahil bo'lsa olov ichra ham inson,
Ahil kishilarga olov ham oson,
Noahil kishilar suhbatidan qoch,
Noahil suhbat yomondan yomon.

Olovni ardoqlash, unga sig'inish – Zardusht dini, qadimgi turkiy xalqlar hayotida ham juda rivojlangan. Masalan, Narshaxiy ma'lumotlariga ko'ra, Muqanna o'zini uch kun qizitilgan tandirga tashlaydi. Sababi, osmonga chiqib, olov farishtalarini olib kelib, o'z dushmanlarini yengmoqchi bo'lgan. Etnografiya fanida o'choq egasi bo'lmish ruh ayol jinsidan deb tassavur qilinganligi aniqlangan. Olov kulti daraxtlarga sig'inish va eng muhimi, hosildorlik kulti bilan bog'liq – Qur'oni Karimning «Yosin» surrasida Olloh haqida: «U sizlar uchun yam-yashil daraxtdan olov paydo qilgan zotdir», – deyilgan.

O'zbek she'riyatida olov va uning kul, cho'g', tutun, gulxan, o'choq, tandir, kosov, o'tin, tarasha va boshqa analoglari keng obrazlantirilganligi kuzatiladi va ular asosida turli ramziytimsoliy ma'nolar talqin qilinadi. O'choq o'zbek shoirlari ijodida olov obrazini o'zida mujassamlantirgan an'anaviy poetik timsollardan biri bo'lib, zamonaviy she'riyatimizda turli ma'nolarda qo'llanib kelmoqda. Non o'choq – o'choqning bir turi. Shoirlarimiz nazaridan shu o'choq turi ham chetda qolmagan. Quyidagi misralarda inson umri non o'choqqa o'xshatilgan:

Umr emas,bu umr emas!
Bu bir o'choq, tutab, yonmadi,
Bu bir xotir,
Rangi yo'q,elas!

O.Hojieva baxtning tagida (o'choqning kulida) yotgan mehnat va mashaqqatlarni alohida ta'kidlash, ular baxtga erishishiga sababchi bo'lganidan mammunligini bildirish uchun o'choq obrazidan foydalanan ekan, bu o'rinda uning g'isht, somon, toza tuproq(gil)dan yasalishiga alohida urg'u qaratgan: Bunda o'chog'inining kulida – mehrim, Har g'ishti, somoni, gilida – mehrim. Mayin allalarim tinglab yig'lagan, Vassa cho'plarining tilida – mehrim.

Guljamol Asqarovaning «Zerikish» nomli she'ridan olingan quyidagi misralarda ichida olov yoqish mumkin bo'lgan yana bir narsa – tandir so'zi tilga olingan: Qo'llarimga tillolardan zanjir soldim, Vujudimni qorib yerga tandir soldim. Olov to'lyapti menga... Tandir – non yopiladigan narsa. Non yopishdan oldin unga olov yoqilib, toblanadi. Tandir qizigach, uning ichida non pishirib olinadi. She'rlarda tandir obraqi shu real ma'noda ham, ramziy ma'noda «o'rtangan ko'ngil» tushunasida ham ifoda etiladi. «Osokada o'zbek choyxonasi (Tadbirkor o'zbek yigitiga) she'rida Osoka shahrining qoq o'rtasida bunyod etilgan o'zbek choyxonasi, unga tandir ham qurilib, ichiga gurillatib o't yoqilib, kichkina quyoshdek o'zbekning noni yopilganiyu u yapon havosini qizdirib turgani haqida so'z yuritilgan. «O'zbekiston uchun dengiz o'zingiz» she'rida bu ko'hna yurt quyoshli o'lka bo'lganligi sababli ichida olov tafti bor qozonga o'xshatilgan:

Qozonning ichida otashin taft bor,

Olovning o‘zini ko‘rmaysan biroq.

Xalq olov timsoli orqali farzand ma’nosini ham ifoda etgan. Bu bolalarga qo‘yiladigan Oloviddin, Otashboy, Gulxan ismlari misolida ham o‘z tasdig‘ini namoyon eta oladi. Lekin keyinchalik farzand ma’nosini olov obrazidan uning atributi bo‘lgan chiroq obraziga ko‘chirilgan.

Shuning uchun ko‘pincha ota-onalarning o‘z farzandiga to‘ppadan-to‘g‘ri «chiroq‘im» deb aytishi kuzatiladi. Bu bilan farzandlarning ota-onsa ruhiga isu chiroq qilib turishi odatiga ishora qilinmoqda. Demak, «O‘g‘il yoqqan chiroqni, qiz ham yoqar» maqolining ma’nosini qiz farzand ham oila qurib, farzand ko‘rar ekan, otaonasi nomi, chiroq‘i o‘chmasligini ta’minlaydi.

Ko‘rinadiki, chiroq ko‘chimi, odatda, o‘g‘il va qiz farzandlarga nisbatan teng qo‘llanilaveradi. Chiroq – olov analoglaridan biri. Tog‘larim qaerda, cho‘llarim qani? Odamlarim, qaylarga ketgansiz yiroq? Qarshimda tovlangan yo‘llarim qani, Qaydasan chiroq? Tugadi! Tugadi hamma olovim. Nurga talpinmoq tushunchasida yaxshilikka, yorug‘likka intilish g‘oyasi mujassam.

Xullas, o‘zbek she’riyatida olov kultiga aloqador qadimgi xalq qarashlarining o‘ziga xos obrazli tasvirda berilishi kuzatiladi. Ularni alohida o‘rganish esa badiiy tafakkurning tadrijiy takomilini o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

REFERENCES

1. Sharipova M. B., Jalolova S. Z. Q. HOZIRGI MAISHIY TURMUSHDA O‘Z O‘RNIGA TO‘LA EGA BO‘LGAN MAROSIMLAR (“ALPOMISH” DOSTONI MISOLIDA) //Scientific progress. – 2021. – T. 2. – №. 7. – S. 1114-1119.
2. Sharipova M. B., Saidova D. X. K. Metodы i sredstva ispolzovaniya natsionalnykh sennostey v duxovno-nravstvennom vospitanii detey v seme //Problemy pedagogiki. – 2020. – №. 3 (48). – S. 31-32.
3. Sharipova M. B., Saidova D. X. K. Metodы i sredstva ispolzovaniya natsionalnykh sennostey v duxovno-nravstvennom vospitanii detey v seme //Problemy pedagogiki. – 2020. – №. 3 (48). – S. 31-32.
4. Baxshilloyevna S. M. et al. MAKTABGACHA YOSHIDAGI BOLALAR MA’NAVIY DUNYOSINI BOYITISHDA “ALPOMISH” DOSTONING O’RNI //BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – T. 2. – №. 2. – S. 146-152.
5. Sharipova M.B., Xusainova Z.X. VOSPEVANIE NATSIONALNYIX DUXOVNYIX SENNOSTEY V GEROICHESKOM EPOSE // Vestnik nauki i obrazovaniya. 2021. №16-2 (119). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/vospevanie-natsionalnyh-duhovnyh-tsennostey-v-geroicheskem-epose> (data obrazeniya: 07.10.2022).
6. Sharipova M. YOSH AVLOD RUHIY VA MA’NAVIY DUNYOSINI BOYITISHDA QAHRAMONLIK EPOSINING O’RNI: DOI: 10.53885/edires. 2021.17. 14.046 Sharipova Maxbuba Baxshilloyevna BuxDU, Maktabgacha ta’lim kafedrasи o‘qituvchisi //Nauchno-prakticheskaya konferensiya. – 2021. – S. 116-117.
7. Sharipova, M. (2023). MAKTABGACHA YOSHIDAGI BOLALARNING NUTQ O‘STIRISHNING ILMIY-NAZARIY AHAMIYATI. sENTR NAUCHNYIX PUBLIKATSIIY (buxdu. uz), 35(35).

8. Baxshilloyevna, S. M., & Mirzoyevna, I. M. (2023). MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDA ETNIK MADANIY TA'LIM VA UNING TARIXIY ILDIZLARI. *PEDAGOGS jurnali*, 1(1), 163-163.
9. Sharipova, M. B., & Salimova, K. R. Q. (2021). “ALPOMISH” DOSTONIDA “KAMPIR O’LDI” MAROSIMI TASVIRI. *Scientific progress*, 2(7), 1109-1113.
10. Sharipova, M. B., & Nematova, Sh. N. (2020). Formirovaniye esteticheskoy kultury vospitannikov doshkolnykh obrazovatelnykh uchrezhdeniy. *Vestnik magistratury*, (3-3 (102)), 113-114.
11. Sharipova, M. (2020). Qahramonlik eposi-milliy madaniyatimizning nodir xazinasi ("Alpomish" dostoni misoldida). *sENTR NAUCHNYIX PUBLIKATSIIY (buxdu. uz)*, 1(1).
12. Sharipova, M. (2020). XUDOJESTVENNAYA INTERPRETATSIYa OBRYaDOV V EPOSE «ALPOMISH». *sENTR NAUCHNYIX PUBLIKATSIIY (buxdu. uz)*, 1(1).
13. Sharipova, M. (2024). Historical-Vital Bases of Epos And Ritual Expression (In The Example of the Epic “Alpomish”). *sENTR NAUCHNYIX PUBLIKATSIIY (buxdu. uz)*, 46(46).
14. Sharipova, M. (2023). MAKTABGACHA TA'LIMDA INNOVATSION FAOLIYATNI TASHKIL ETISH FUNKSIYALARI. *sENTR NAUCHNYIX PUBLIKATSIIY (buxdu. uz)*, 44(44).
15. Sharipova, M. (2024). EPOS HAMDA MAROSIM MUNOSABATINING QADIMIYLIGI VA AN'ANAVIYLIGI. *sENTR NAUCHNYIX PUBLIKATSIIY (buxdu. uz)*, 46(46).
16. Sharipova, M. B., & G'afurova, A. A. (2024). METHODOLOGY OF STAGING IN THE DEVELOPMENT OF CHILDREN'S SPEECH IN THE PRESCHOOL EDUCATION SYSTEM. *THE ROLE OF SCIENCE AND INNOVATION IN THE MODERN WORLD*, 3(1), 21-29.
17. Sharipova, M. (2023). O ‘ZBEK FOLKLORSHUNOSLIGIDA ALPOMISHSHUNOSLIK TA'LIMOTI. *sENTR NAUCHNYIX PUBLIKATSIIY (buxdu. uz)*, 44(44).
18. Sharipova, M. (2023). MAKTABGACHA TALIM YOSHDAGI BOLALARНИNG IJODIY QOBILIYATLARI VA UNI SAMARALI RIVOJLANTIRISH OMILLARI. *sENTR NAUCHNYIX PUBLIKATSIIY (buxdu. uz)*, 44(44).
19. Sharipova, M. (2023). MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA SAHNALASHTIRISH, O'YIN FAOLIYATINI TASHKIL ETISH YO'LLARI. *sENTR NAUCHNYIX PUBLIKATSIIY (buxdu. uz)*, 44(44).
20. MA'NAVIY, Y. A. R. V., & O'RNI, D. B. Q. E. DOI: 10.53885/edinres. 2021.17. 14.046 Sharipova Maxbuba Baxshilloyevna BuxDU. *Maktabgacha ta'lism*.
21. SHARIPOVA, M. (2023). “ALPOMISH” DOSTONINI O’ZBEK VARIANTLARI ORASIDAGI MAROSIMLARNING BADIY TALQINI. *Journal of Research and Innovation*, 1(10), 45-52.
22. Baxshilloyevna, S. M. (2023). “ALPOMISH” DOSTONIDA SUNNAT TO ‘YI MAROSIMINING BADIY TALQINI. *Nauchnyiy Fokus*, 1(2), 1091-1095.

23. Baxshilloyevna, S. M. (2023). “ALPOMISH” DOSTONINI O ‘RGANISH BOSQICHLARI, METODLARI HAMDA KUYLASH ETOSI. *Nauchnyiy Fokus*, 1(2), 1096-1100.
24. Sharipova, M. (2023). MAKTABGACHA TA’LIM TIZIMIDA ETNIK MADANIY TA’LIM VA UNING TARIXIY ILDIZLARI. *sENTR NAUCHNIX PUBLIKATSIY (buxdu. uz)*, 35(35).
25. Sharipova, M. (2023). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA IFODALI NUTQNING IJTIMOIY-PEDAGOGIK FUNKSIYALARI. *sENTR NAUCHNIX PUBLIKATSIY (buxdu. uz)*, 32(32).
26. Sharipova, M., Ro’ziboyeva, Z., & Yovqocheva, H. (2024). FEATURES OF ACHIEVEMENT OF A CAREER IN PRESCHOOL EDUCATION SYSTEM. *Modern Science and Research*, 3(5), 1370-1376.
27. Baxshilloyevna, S. M. (2024). ARXAlik EPOSNING SUJET STRUKTURASIDA MOTIVLAR TAHLILI. *SAMARALI TA’LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR JURNALI*, 2(4), 343-349.
28. Sharipova, M. B. (2024). NAUCHNO-TEORETICHESKIE OSNOVY IZUCHENIYa GEROICHESKOGO EPOSA. *International Journal of Formal Education*, 3(4), 77-82.
29. Bakhshilloevna, S. M., & Akmalovna, A. M. M. (2024, February). SCIENTIFIC AND THEORETICAL FOUNDATIONS OF AESTHETIC EDUCATION OF CHILDREN OF PRESCHOOL AGE. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL E-CONFERENCE "MODERN TENDENCIES OF DIGITAL EDUCATION AND WAYS OF IMPLEMENTING THEM IN THE EDUCATIONAL PROCESS"*—Brno, Czech (Vol. 1, pp. 49-51).
30. qizi Hamidova, U. F., & Sharipova, M. B. (2024, February). METHODOLOGY OF DEVELOPMENT OF CREATIVE ABILITIES OF CHILDREN OF PRESCHOOL AGE. In *INTERNATIONAL CONFERENCE: PROBLEMS AND SCIENTIFIC SOLUTIONS*. (Vol. 3, No. 1, pp. 73-82).
31. Sharipova, M. B., & Ne’matulloeva, M. (2024, February). TEORIYA RAZVITIYIa LICHNOSTI ERIKA ERIKSONA SREDI DRUGIX PODXODOV I NAUCHNOY METODOLOGII. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL E-CONFERENCE "MODERN TENDENCIES OF DIGITAL EDUCATION AND WAYS OF IMPLEMENTING THEM IN THE EDUCATIONAL PROCESS"*—Brno, Czech (Vol. 1, pp. 6-13).
32. Sharipova, M. B., & Ne’matulloeva, M. (2024, February). KOMPLEKSNAYa KONSEPSIYA RAZVITIYIa LICHNOSTI I YE NAUCHNO-TEORETICHESKIE OSNOVYI. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL E-CONFERENCE "MODERN TENDENCIES OF DIGITAL EDUCATION AND WAYS OF IMPLEMENTING THEM IN THE EDUCATIONAL PROCESS"*—Brno, Czech (Vol. 1, pp. 18-25).
33. Sharipova, M. (2023). “ALPOMISH” EPOSINING QADIMIYLIGI VA AN’ANAVIYLIGI. *sENTR NAUCHNIX PUBLIKATSIY (buxdu. uz)*, 44(44).

34. Sharipova, M. (2024). EPOS HAMDA MAROSIM MUNOSABATINING QADIMIYLIGI VA AN'ANAVIYLIGI. *sENTR NAUCHNIX PUBLIKATSIY (buxdu. uz)*, 46(46).
35. Sharipova, M. (2024). EPOS HAMDA MAROSIM MUNOSABATINING QADIMIYLIGI VA AN'ANAVIYLIGI. *sENTR NAUCHNIX PUBLIKATSIY (buxdu. uz)*, 46(46).
36. Sharipova, M. (2023). "ALPOMISH" DOSTONIDA NIKOH MAROSIMINING ARXAIIK-BAIIY XUSUSIYATLARI. *sENTR NAUCHNIX PUBLIKATSIY (buxdu. uz)*, 44(44).
37. Sharipova, M. (2023). MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDA ETNIK-MADANIY TA'LIM TIZIMI. *sENTR NAUCHNIX PUBLIKATSIY (buxdu. uz)*, 32(32).
38. Sharipova, M. (2023). "ALPOMISH" DOSTONI BADIY STRUKTURASIDA MAROSIMLARNING O'RNI. *sENTR NAUCHNIX PUBLIKATSIY (buxdu. uz)*, 30(30).
39. Sharipova, M. B., & Farmonova, G. S. Q. (2021). NIKOHDAN SO'NG ADO ETILADIGAN URF-ODATLAR TASVIRI ("ALPOMISH" DOSTONI MISOLIDA). *Scientific progress*, 2(7), 1125-1129.
40. qizi Hamidova, U. F., & Sharipova, M. B. (2024, February). METHODOLOGY OF DEVELOPMENT OF CREATIVE ABILITIES OF CHILDREN OF PRESCHOOL AGE. In *INTERNATIONAL CONFERENCE: PROBLEMS AND SCIENTIFIC SOLUTIONS*. (Vol. 3, No. 1, pp. 73-82).
41. Sharipova, M. B., & Ne'matulloeva, M. (2024, February). TEORIYa RAZVITIYa LIChNOSTI ERIKA ERIKSONA SREDI DRUGIX PODXODOV I NAUCHNOY METODOLOGII. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL E-CONFERENCE "MODERN TENDENCIES OF DIGITAL EDUCATION AND WAYS OF IMPLEMENTING THEM IN THE EDUCATIONAL PROCESS"-Brno, Czech* (Vol. 1, pp. 6-13).